


«Тарикат хаджаган-накшбандийа и семь пиров» nomli monografiya nashr etildi

Bulg`or islom akademiyasi (Болгарская исламская академия) va O`zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda Komiljon Rahimovning «Тарикат Хаджаган-накшбандийа и семь пиров» nomli monografiyasini nashr ettirdi.



Komiljon Rahimov – tasavvuf bo`yicha soha mutaxassisi. Tadqiqotda tariqat asoschilari xojagon-

naqshbandiyning hayoti va faoliyati, Abduxoliq Gijdivoniydan Bahouddin Naqshbandgacha bo'lgan dastlabki yetti purning hayoti va faoliyati haqida to'xtalib, tariqatning paydo bo'lishi va tarqalish tarixi, uning go'yaviy va ilmiy asoslari haqida aniq, ilmiy asoslangan tadqiqot natijalarini taqdim etdi. Tadqiqotchi, tariqatlar paydo bo'lishidan oldin, VIII - XI asrlardagi Markaziy Osiyo tasavvuf tarixi to'g'risida ma'lumot bergan. Bu bilan, Markaziy Osiyoda xojagon-naqshbandiya tariqati quruq joyda paydo bo'lmaganligini va uning tarixiy asoslarini isbotlab berdi.

Falsafa doktori Komiljon Rahimovning monografiyasi ma'naviy-ma'rifiy meros borasida izlanishning tarixiy tajribasini ro'yobga chiqarishda, MDH mamlakatlari xalqlarining islomiy merosining ko'p asrlik an'alarini tiklash va rivojlantirishga ijobiy hissa qo'shishi bilan ahamiyatli.

Monografiya uchta bobdan iborat:

Markaziy Osiyo tasavvufi xojagon-naqshbandiyaga qadar bo'lgan davrda;

Xojagon-naqshbandiya tariqati (oltin silsila, xojagon-naqshbandiya tariqatining paydo bo'lishi va tarqalishi);

Yetti pir (Xoja Abdulxoliq G'ijdivoniy, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjirfag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband).